

TASVIRI

Kadirova Gulrux

*O'zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti O'zbek tili va adabiyoti
yo'nalishi 2-bosqich talabasi.*

Usarova Laylo Ibragimovna

O'zbek tili va adabiyoti kafedrasи o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada o'zbek romanchiligiga katta hissa qo'shgan Shuhrat ijodi, hayoti, asarlaridagi obrazlar tasviri ochib berilgan. Adib haqida fikrlar keltirilgan.

Kalit so'zlar: Shuhrat, roman, urush muhabbat, sadoqat, portret obraz.

Asil ismi G'ulom Alimov bo'lgan Shuhrat 1918-yil 19-aprelda Toshkentning Hazrati Imom (Xastimom) mahallasida hunarmand oilada tug'ildi. Maktabni bitirgach transport texnikumida o'qiydi. Yunus Latif ta'sirida she'r yoza boshlaydi. Keyinchalik 1936-1940-yillar oralig'iida Toshkent Davlat pedagogika institutida tahsil oladi. 1937-yilgi mudhish voqealar Shuhratni ham chetlab o'tmaydi "Otangiz savdogarlik qilgan ekan. O'zingiz kosiblikdan chiqmagan ekansiz, xotiningiz eskicha, jiyakli lozim bilan atlas ko'yvak kiyib yurar ekan, bolangiz bo'lsa beshikda, yaqinda xatna qilar ekansiz, turgan-turishingiz eskicha" [3.15] deb yozuvchilar uyushmasidan haydashadi. Shuhrat o'z ijodini she'r yozish bilan boshlaydi. Shuhratning ayni ijodi gullagan davri urush yillariga to'g'ri keladi. Urushning adib asarlarining har biriga ta'siri bor. Adib ikkinchi jahon urushi davrida orttirgan katta hayotiy tajribasi asosida xalqimizning hayoti, qahramonligi, vatanparvarligi, qiyinchiliklarga bardoshliligi, keljakka bo'lgan umidi haqida "Shinelli yillar" "Oltin zanglamas" "Jannat qidirganlar" asarlarini yozadi. Shuhrat asarlarida ham O'tkir Hoshimov singari ona obraziga alohida e'tibor qaratiladi. Uning "Oltin zanglamas" romani 1967-yilda yozilgan. Asarda o'qituvchi kasbi ulug'langan, odamiylik, hasad, havas,

vatanparvarlik, muhabbat va ona mehri ulug'langan. Shuhratning bu romani "Mehribon onam, sevimli muallim, qadirdon do'stim, aziz farzandlarimga bag'ishlayman" [1.9] satrlari bilan boshlanadi. Adib asar orqali yaxshi va yomon fazilatlar o'rtasida kelib chiqadigan ziddiyatlarga urg'u beradi. Jamiyatda o'qituvchi qadri, o'rnini oqlab chiqadi. Roman samimiyligi, oddiy insonlarning hayoti yoritilganligi bilan ajralib turadi.

"Oltin zanglamas" asari sof va samimiyligi muhabbat tasviri bilan boshlanadi. Bundan tashqari asarlarida maktab alohida o'rinni egallaydi chunki shaharlik qiz Aziza va oddiy qishloq yigitini Qodirjon obrzlari muhabbatini ham shu ilm uchog'i bo'lgan mактабда boshlangan. Asarni o'qigan saringiz asar voqealari ichiga tushasiz qaahramonlarga bo'lgan mehringiz oshib boraveradi, oddiy asar qaahramonlari Aziza va onaizor obrazlari orqali adib butun o'zbek asarlarini va qizlarini tasvirlagandek go'yo. Urush bo'lishiga qaramasdan Qodir va Azizaning muhabbatini tugamadi, Qodir urushga ketadi, Aziza ham o'z muhabbatini ko'rsatib front kasalxonalaridan ishlaydi. Urush tugaganidan keyin esa ularning baxtli oilasi tasvirlari keltiriladi. Asarni o'qir ekansiz "tirnoqqa zor oila" deya tasvirlangan Sodiq va Jannat obrazlari sizni be etibor qoldirmaydi. Ular sevishib, sinashib turmush qurbanlar. Muhabbatlari shunchalik kuchlik dardlarini bir biriga bildirmaydi, ichiga yutishadi, pana-pana joyga borib yig'lashadi. Bu dunyoda befarzandlikdan yomon narsa bormi. Ayollar uchun alla aytish, beshik tebratish armon bo'lmasin. Jannat shunchalik tasvirlanganki uning odobi farosati va mehri bo'lakcha. Shunday ayolga Alloh nahotki bittagina farzand bermadi deb o'ylab qolasiz.

Romanda matonatli, buyuk ona tasviri alohida o'rinni egallaydi. Ona uchun farzand necha yoshga kirmsin, qay pog'onani egallamasin go'yo u avvalgidek mo'rg'ak, jazzi go'dak holida qolaverar ekan. Asar bosh qahramoni Sodiqning onasi Adolat xola farzandi qamalganidan so'ng ancha cho'kib qoladi.

Adib: "Jon bolam" xola o'g'li qamalganidan so'ng o'zini ancha oldirib qo'ydi. Sodiq qahramon bo'lmaguncha, yuzi choplangan tuhmat loyini yuvmaguncha, hamma Sodiqjonni qahramon sifatida tan olmaguncha, Adolat xola bu dunyodan ko'z yummadi" – deya tasvirlaydi asasrdi. Haqiqatdan ham

axir qanday qilib ona o’z farzandini bu ahvolda ko’rib chidab tura oladi. Sodiqjonga berilgan medal bu faqat Sodiqniki emas bu matonatli, sabirli ona uchun ham berilgan mukofotdir.

Xulosa qilib aytganda asar bir nechta sof, samimiy, mehribon insonlar taqdiri yoritilgan, o’qigan sari uchiga kirib ketaveradigan hammaga tushunarli qilib sodda tilda yozilgan beqiyos ijod namunasidir.

Asarda o’qituvchi degan sharaflı kasb egasining mashaqqatli hayot yo’li tasvirlangan. Qanchalik bu yo’l og’ir bo’lmasin o’z iymonidan kechmagan haqiqiy matonatli ona farzandi tasvirlangan. Vatani uchun hattoki o’z jonini fido qilib, or-nomus uchun o’limga tik qaragan Sodiqjon tasvirlangan. Bu asaarni o’qir ekansiz men onam, vatanim oldida nima qildim degan savolni o‘zingizga bera boshlaysiz.

Shuhrat nafaqat romanchilik, borasida yuqorida aytganimdek she’riyat borasida ham o’zini ko’rsata olgan ijodkordir. Maqsud Shayxzoda shoirning she’riy ijodini birinchilardan bo’lib o’rganib, yirik hajmli maqola yozgan bo’lsa O. Sharafiddinov, J.Hayitmatov, Jamol Kamol singari olimlarning maqlolalari va “ Adib ijodiga bir nazar” “ Shuhrat zamondoshlari xotirasida” , “ Ozod qalb kuychisi” da adib asarlarining yuzasidan fikrlar bayon qilganlar.

Adabiyotshunos olim U. Normatov Shuhrat to’g’risida ilk adabiy portretni yaratgan. Maxsud Shayxzoda Shuhrat ijodining o’ziga xos xususiyatlari haqida shunday degan: “ U she’riyat san’atini egallab olgan baquvvat shoirlarimiz qatoriga kirib oldi. Uning g’oyasi sog’lom, qalami puxta, xayoli uning, obrazlari asil, so’zlari tejamli va ixchamdir. Uning she’rlari vazni ravon, ohangdor qofiya va radiflari ko’pincha jarangdor va yangidir...

She’riyatimizda realistik haqiqatni romantik jo’shqinlik bilan omuxta qilib, go’zal va nafis lirik asarlar yaraatgan shoir Shuhrat umuman o’zbek poeziyasini o’rtamiyonachilik saviyasidan olib chiqib, yuqori ko’tarilishga astoydil xizmat qilgan”.[3.4]

ISSN:3060-4567 Modern education and development
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

- 1 Shuhrat (2018). Oltin zanglamas. – Tosh. Yangi asr avlodи
- 2 Narimov N (2008) XX asr adabiyoti manzaralari.-T O'zbekiston.
- 3 Shuhrat ijodining g'oyaviy-badiiy xususiyatlari. Soatova N. I
2023-yil Jizzax.